



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
Identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 3

Languages of publication: **Uzbek**, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





AN'ANAVIY IQTISODIYOTDAN YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH

Jalilov Jasmina Shuxrat qizi

Qarshi Davlat Texnika Universiteti .

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti 2-bosqich talabasi)

e-mail: aaan5816@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada an'anaviy iqtisodiyotning asosiy muammolari va uning atrof-muhitga salbiy ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning tamoyillari va afzalliklari tushuntirib beriladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanish masalalari yoritiladi. Maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati hamda u insoniyat kelajagi uchun qanday imkoniyatlar yaratishi haqida fikr yuritiladi. Shu orqali o'quvchi ekologik muammolarni hal etishda yashil iqtisodiyotning o'rni va zarurligini anglab oladi

Kalit so'zlar: an'anaviy iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologiya, chiqindilarni kamaytirish, O'zbekistonda yashil siyosat, "Yashil makon" dasturi, quyosh va shamol energiyasi

Аннотация: В статье рассматриваются основные проблемы традиционной экономики и её негативное влияние на окружающую среду. Кроме того, объясняется понятие "зелёная экономика" её принципы и преимущества. Освещаются вопросы использования возобновляемых источников энергии, сокращения отходов и устойчивого развития. В статье подчёркивается важность перехода к зелёной экономике и обсуждаются возможности, которые она может создать для будущего человечества. Благодаря этому читатель осознаёт роль и необходимость зелёной экономики в решении экологических проблем.

Ключевые слова: традиционная экономика, зелёная экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, энергоеффективность, экология, сокращение отходов, зелёная политика Узбекистана, программа "Зелёное пространство", солнечная и ветровая энергия.

Abstract: In the article, the main problems of the traditional economy and its negative impact on the environment are discussed. In addition, the concept of the green economy, its principles, and advantages are explained. Issues such as the use of renewable energy sources, reduction of waste, and sustainable development are also covered. The article highlights the importance of transitioning to a green economy and discusses what opportunities it can create for the future of humanity. Through this, the reader





understands the role and necessity of the green economy in solving environmental problems.

Key words: traditional economy, green economy, sustainable development, renewable energy, energy efficiency, ecology, waste reduction, green policy in Uzbekistan, "Green Space" program, solar and wind energy.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyot tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Ammo bu jarayonning salbiy oqibatlari ham yaqqol sezilmoqda. An'anaviy iqtisodiyotning asosiy xususiyati – tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, ko'mir, neft va gaz kabi qazilma boyliklarga ortiqcha tayanishdir. Bu esa ekologik muammolarni kuchaytirib, iqlim o'zgarishi, havo va suv resurslarining ifloslanishi, chiqindilar ko'payishi kabi global muammolarga sabab bo'lmoqda. Natijada inson salomatligi, hayot sifati va kelajak avlodlar uchun xavfsiz muhit masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Shu nuqtada yashil iqtisodiyot tushunchasi paydo bo'ldi. Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, ekologik muvozanatni saqlashni va barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan yangi iqtisodiy modeldir. U qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarishni ekologik xavfsiz yo'lga qo'yishga asoslanadi. Bu nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini ham beradi.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yashil makon" umumxalq harakati, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiiq etish shular jumlasidandir. Demak, an'anaviy iqtisodiyotdan yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik zarurat, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim strategik yo'nalishdir.

Tadqiqot uslubi

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonun va dasturlar o'rganildi. Taqqoslash, tahlil va sintez metodlari asosida an'anaviy iqtisodiyot va yashil iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari solishtirildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar va amaliy misollar orqali yashil iqtisodiyotga o'tishning ijobiy jihatlari yoritildi. Mavzu bo'yicha ilg'or tajribalar ham o'rganilib, O'zbekiston sharoitiga mos xulosalar chiqarildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili : An'anaviy iqtisodiyot va yashil iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda bu masalaga jahon hamjamiyati va mahalliy olimlar tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro miqyosda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (2015), OECD, Jahon banki, Xalqaro energetika agentligi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan hisobotlarda yashil iqtisodiyotning global ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotchilar (Pearce, 1992; Jacobs, 2013) yashil iqtisodiyotni ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikning muhim omili sifatida baholaydilar.





O'zbekiston olimlari ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, professor X. Xamidov, iqtisod fanlari doktori O. Qo'chqorov, professor B. Khodiev, dotsent Sh. Raximov, iqtisodchi olim G. Tursunova va boshqalarning asarlarida barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yashil texnologiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda boshqa ilmiy muassasalar tomonidan tayyorlangan hisobot va tavsiyalar mamlakatimizda yashil iqtisodiyotning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tajribani mahalliy ilmiy ishlanmalar bilan taqqoslash esa O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida o'ziga xos imkoniyatlari va muammolarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari va taxlili : Tadqiqot jarayonida an'anaviy iqtisodiyotning asosiy kamchiliklari aniqlanib, yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyati asoslab berildi. Tahlillardan ko'rinadiki, an'anaviy iqtisodiyot resurslarga haddan tashqari tayanadi va ekologik muammolarni chuqurlashtiradi. Masalan, ko'mir va gazdan keng foydalanish havoni ifloslantiradi, neft mahsulotlari esa tuproq va suv resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonlar iqlim o'zgarishiga olib kelmoqda. Xalqaro ekspertlar ma'lumotiga ko'ra, agar iqtisodiy faoliyat hozirgi sur'atda davom etsa, 2050-yilga kelib global harorat 2-3 °C ga oshishi mumkin. Bu esa inson salomatligiga, qishloq xo'jaligiga va tabiiy ekotizimlarga katta xavf tug'diradi.

Yashil iqtisodiyot esa an'anaviy iqtisodiyotga nisbatan ko'plab afzalliklarga ega ekanligi tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Birinchidan, u qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslanadi. Masalan, quyosh va shamol energiyasi tabiiy resurslarni tejash bilan birga, chiqindilarni ham kamaytiradi. Ikkinchidan, yashil texnologiyalar energiya samaradorligini oshiradi: zamonaviy qurilish materiallari, energiya tejamkor uskunalari va ekologik transportdan foydalanish buning isboti bo'la oladi. Uchinchi jihat – yashil iqtisodiyot yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Xalqaro me'yorlarga ko'ra, bu sohada yuz minglab yangi ish o'rinlari ochilishi mumkin.

O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Jumladan, "Yashil makon" dasturi asosida millionlab daraxtlar ekilmoqda, bu havo sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari amalga oshirilmoqda. Masalan, 2023–2025-yillarda Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarida yirik quyosh elektr stansiyalari ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida O'zbekistonda "yashil kreditlar" tizimi yo'lga qo'yilib,





tadbirkorlarga ekologik toza ishlab chiqarish uchun imtiyozli shartlar yaratilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki iqtisodiy foyda ham keltiradi. Masalan, energiya samaradorligini oshirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari esa uzoq muddatda iqtisodiy mustaqillikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, aholining ekologik madaniyatini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish jarayoni mamlakat barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun an'anaviy iqtisodiyotdan yashil iqtisodiyotga o'tish ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslarni tejash va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning eng maqbul yo'lidir.

Yashil iqtisodiyotga o'tganimizda O'zbekiston hududida qanday o'zgarishlar bo'lishini misol tariqasida ko'rsak :

1-misol: Qashqadaryoda quyosh energiyasi loyihasi va iqtisodiy samarasi

Tasavvur qiling, Qashqadaryo viloyatida yirik quyosh elektr stansiyasi qurildi. Bu stansiya yiliga 1 million Mvt/soat elektr ishlab chiqaradi. An'anaviy yoqilg'ida ishlaydigan elektr stansiya bilan taqqoslaganda, bu loyiha yiliga kamida 500 ming tonna karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarining oldini oladi. Bu esa 50 mingta avtomobilning bir yillik chiqindisiga teng. Eng qiziq tomoni – mazkur loyiha nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali. Qayta tiklanuvchi energiya hisobiga viloyatdagi yuzlab korxonalar arzon elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, loyiha qurilishida 2000 ga yaqin ishchi vaqtinchalik, keyinchalik esa 300 dan ortiq mutaxassis doimiy ish o'rniga ega bo'ladi. Bu misol yashil iqtisodiyotning ekologiya va bandlikni birlashtirib, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

2-misol: Toshkent shahrida chiqindisiz ishlab chiqarish tizimi

Toshkentdagi kichik sanoat zonalaridan birida "aqli chiqindi boshqaruvi" loyihasi joriy etildi. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonida chiqqan plastik, metall va qog'oz chiqindilarini avtomatik saralash tizimi o'rnatildi. Natijada chiqindilarning 70 foizi qayta ishlashga yuborilib, ikkilamchi xomashyo sifatida boshqa korxonalarda qayta foydalanildi. Masalan, plastik idishlardan qurilish uchun maxsus polimer plitalar, metall chiqindilardan esa yangi texnika detallarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu loyiha tufayli nafaqat chiqindilar kamaydi, balki yangi mahsulotlar yaratilib, korxonalarning umumiy daromadi 15–20 foizga oshdi. Eng muhimi, bu tajriba boshqa hududlarda ham qo'llanilsa, mamlakatda chiqindilar hajmi keskin kamayib, yashil iqtisodiyotning amaliy samarasi yaqqol namoyon bo'ladi.





Maqoladan shuni xulosa qilishimiz mumkinki : Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy iqtisodiyot bugungi kunda insoniyat uchun katta iqtisodiy yutuqlar bergan bo'lsa-da, uning ekologik oqibatlarini tobora xavfli tus olmoqda. Tabiiy resurslarning kamayishi, chiqindilarning ortishi va iqlim o'zgarishi global miqyosda barqaror rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois yashil iqtisodiyotga o'tish endilikda tanlov emas, balki zaruratdir.

Yashil iqtisodiyot – bu faqatgina ekologik toza texnologiyalar emas, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar, zamonaviy ish o'rinlari, sog'lom muhit va kelajak avlodlarga munosib hayot qoldirishdir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish orqali davlatlar nafaqat tabiatni muhofaza qiladi, balki iqtisodiy mustaqilligini ham kuchaytiradi.

O'zbekiston ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda. "Yashil makon" umumxalq harakati, quyosh va shamol elektr stansiyalari, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish kabi amaliy qadamlar yurtimizning barqaror rivojlanish yo'lida muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa. An'anaviy iqtisodiyotdan yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xalq farovonligini oshirish va kelajak avlodlar uchun sog'lom hayot tarzini ta'minlashning ham eng to'g'ri yo'lidir. Yashil iqtisodiyot – bu kelajak iqtisodiyoti, barqaror taraqqiyotning kaliti va insoniyat umidini oqlaydigan yo'nalishdir. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ishlab chiqarishning ekologik xavfsiz texnologiyalar asosida tashkil etilishini, resurslardan oqilona foydalanishni va chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishni taqazo etadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va energetika mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, yashil iqtisodiyot-bu nafaqat ekologik muamolarga yechim, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omilidir.

Adabiyotlar

1. Pearce, D. (1992). Green Economy and Sustainable Development. London: Routledge.
2. Jacobs, M. (2013). The Green Economy: Environment, Sustainable Development and the Politics of the Future. Cambridge University Press.
3. OECD (2021). Green Growth Indicators. Paris: OECD Publishing.
4. United Nations (2015). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN.
5. Хамидов Х. (2020). "Барқарор ривожланиш ва яшил иқтисодиётнинг асосий йўналишлари". – Тошкент: ТДИУ нашриёти.
6. Қўчқоров О. (2021). "Яшил иқтисодиёт шароитида энергия самарадорлиги". – Иқтисодиёт ва таълим журнали, №3.
7. Ходиев Б. (2019). "Ўзбекистонда экологик сиёсат ва яшил иқтисодиёт". – Тошкент: Иқтисодиёт институти.

